



DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM TARAQQIYOTIMIZ TAXDIDI

Dalaboyeva Sohiba Anorboy qizi

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti kursant
Toshkent viloyati, Zangiota tumani

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-October 2023 yil

Ma'qullandi: 28-October 2023 yil

Nashr qilindi: 31-October 2023 yil

KEY WORDS

diniy ekstremizm, terrorizm, diniy tashkilot, aqida, shariat, shahid, kamikadze, diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari, muxolif, missiya, elektron terrorchilik, separatizm, mafkuraviy, qurolli mojarolar.

ABSTRACT

ushbu maqola orqali dunyo ahlini bir nech yillardan buyon og'riqli nuqtasiga aylangan va islom olami nomiga dog' tushirayotgan terroristik tashkilotlar haqida, ular qanday paydo bo'ladi? Qanday qilib xavfni bartaraf etish mumkin? Terrorist guruhlar ortidagi qora qo'l tashkilotlar va ularning bizga salbiy ta'sirlari haqida yoritildi.

Diniy ekstremizm — ba'zi diniy tashkilotlar yoki asosan ayrim dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyati. Diniy ekstremizm ko'pchilik dinlarda mavjud bo'lib, uning tarafdorlari o'z oldiga siyosiy maqsadlarni qo'yadi. Islom ekstremizmining aqidasi ko'ra, birinchidan, go'yo barcha hozirgi zamon musulmon jamoalari islomiy tuslarini yo'qotganlar va „Johiliya“ asri jamiyatlariga aylanganlar. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini keskin tanqid qilish uchun „asos“ bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, go'yo faqat „haqiqiy“ musulmonlar hokimiyatga kelgach, barpo bo'lajak „islomiy tartib“ni o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilmoqlari lozim. Bunday harakatning qonunga muvofiqligi masalasi ular tomonidan umuman o'rta qo'yilmaydi, zero, ular faqat shariatga (bu ham ularning tor talqinida) tayanib ish ko'radilar va o'zlarini islomdan chekingan hokimni ag'darishga go'yo haqli deb biladilar. Islom ekstremizmining „nozik“ tomoni uning „din“ga (haqiqiy dinga emas) asoslanganidir. Guruh rahbarlari o'z qo'l ostidagi a'zolarining ongiga shu darajada ta'sir o'tkazadilarki, ular hatto o'zlarini qurbon qilishga, muayyan maqsad yo'lida „shahid“ yoki „kamikadze“ bo'lishga tayyor turadilar. „Musulmon birodarlar“ harakati (Misr, 1928) dan yetishib chiqqan Sayyid Qutb (1906—65) hozirgi zamon islom ekstremizmining g'oyaviy asoschisi sifatida tan olingan. Uning „nazariya“siga ko'ra, o'zini musulmon deb hisoblovchilarning ko'pchiligi aslida musulmon emas va umuman, barcha davlatlar islomga qarshidirlar. Demak, maqsad — islom davlatini barpo qilish va jamiyatni to'lig'icha islomlashtirishdir.

Terrorizm (lot. terror — qo'rqinch, dahshat) — siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish

maqsadidagi zo'rvonlik harakatlari (ta'qib qilish, buzish, garovga olish, qotillik, portlatish va boshqalar). Terrorizm yakka tartibdagi va guruhli terrorizm (mas., ekstremistik siyosiy to'dalarning harakatlari kabi) toifalarga bo'linadi. Siyosatshunoslikda davlat terrorizmi tushunchasi ham qo'llanadi (diktatorlik va totalitar rejimlarning repressiyalari). Terrorizm o'rta asrlardan boshlab barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrab turgan. Lekin o'tgan asrning oxirlaridan uning yangi ko'rinishlari vujudga keldi (chet el davlatlari va hukumatlari rahbarlarini, ularning diplomatik vakillarini o'ldirish yoki o'g'irlash, elchixonalar, missiyalar, xalqaro tashkilotlarning binolarini portlatish, aeroportlar va vokzallarda portlashlar sodir etish, havo kemalarini olib qochish, odamlarni garovga olish va h.k.). Xalqaro terrorizm keng tarqalib, terrorizm oshkora siyosiy tus ola boshladi. Terrorchilar ayrim mamlakatlar hukumati va unga yaqin tuzilmalardan madad oladigan hollar yuzaga keldi. Ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi ortdi. Terrorchilar qo'lga yadroviy, kimyoviy, biologik qurol tushib qolishi xavfi kuchaydi, elektron terrorchilik paydo bo'ldi. Ko'p hollarda terrorizm diniy ekstremizm, narkobiznes, separatizm bilan bog'liqligi, chatishib ketishi kuzatila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" maxsus qonun qabul qilindi (2000-yil 15 dekabr). Ushbu qonunda terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa ob'yektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining JKda javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar deb ta'riflanadi. Qonunda davlat organlarining Terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi kabi masalalar huquqiy asoslab berilgan. O'zbekiston Respublikasining JKga ko'ra, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etish, bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan harakat 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Terrorchilik harakati odam o'lishiga, boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki mamlakatdan chiqarib yuborish jazosi belgilanadi.

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa, basharti bu shaxsning xarakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Din ishlari bo'yicha qo'mitaning ma'lum qilishicha, ushbu tartibga asosan, Oliy sudning 60 ga yaqin qarori chiqarilib, ularga muvofiq 500 dan ortiq kontent radikal mazmunda deb topilgan hamda ularni O'zbekiston hududida tayyorlash, tarqatish, saqlash, olib kirish va namoyish etish taqiqlangan.

Qo'mita sud tomonidan ekstremistik yoki terroristik deb topilgan va O'zbekistonda taqiqlangan tashkilotlar ro'yxatini OAVlarda e'lon qilib, uning doimiy ravishda yangilab borilishini ta'minlash – prezident qarorida belgilangani eslatgan.

Shuningdek, bayonotda fuqarolardan shubhali diniy mazmundagi audio, video va boshqa turdagi media mahsulotlarni Internet saytlari va ijtimoiy tarmoq sahifalaridan yuklab olmaslik va tarqatmaslikni so'ralgan.

Bundan tashqari, Din ishlari bo'yicha qo'mita Oliy sud tomonidan ekstremizm va terrorizm g'oyalari bilan yo'g'rilgan deb topilgan, O'zbekiston hududiga olib kirish, tayyorlash, tarqatish va namoyish etish taqiqlangan materiallar ro'yxatini ham e'lon qildi.

2023 yil 17 may holatiga ko'ra aktual hisoblangan ro'yxatda — Facebook, Telegram, Instagram, Youtube, Tik-tok, Odnoklassniki va boshqa manbalardagi materiallar manzillari ko'rsatilgan.

Yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy va diniy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, turli diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashni yanada faollashtirish hamda yoshlarni yot g'oyalarga qo'shib ketishining oldini olish maqsadida diniy soha xodimlari quyidagilarga ahamiyat qaratishi zarur hisoblanadi:

- joylarda fuqarolar ichida din bilan bog'liq jarayonlardan doimiy ravishda boxabar bo'lib yurish, vaziyatning barqarorligini ta'minlash bo'yicha mutasaddi tashkilot va idoralar bilan amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash;
- o'quv muassasalari, mahalla yig'inlari, korxonalar va tashkilotlarda yoshlarni dunyoviylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish;
- ta'lim muassasalarida «Tinchlik eng oliy ne'mat», «Islomda ekstremizm va terrorizmga o'rin yo'q», «Diniy-ekstremistik oqimlar – davlat va jamiyatga tahdid» kabi mavzularda davra suhbatlari va seminar-mashg'ulotlar son va sifatini oshirish, tadbirlarda diniy ekstremistik va terroristik guruhlarining asl qiyofasini fosh etuvchi, jinoyatlari aks etgan videotasvirlardan foydalanish;
- joylarda masjid va alohida uylarda(hujralarda) noqonuniy diniy ta'lim berish holatlariga barham berish yuzasidan tushuntirish ishlari tizimli o'tkazish;
- mahalliy OAVda diniy ekstremizm va missionerlik g'oyalarining jamiyatga tahdidi haqida davra suhbatlarida ishtirok etish, xalqaro terrorizm hamda diniy ekstremizm g'oyalari zamirida g'arazli geosiyosiy maqsadlar yotganligi, aqidaparastlar islomni buzib talqin qilishlarini asosli tarzda fosh etuvchi chiqishlarni ko'paytirish;
- Toshkent islom universiteti, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Toshkent islom instituti, Imom Buxoriy xalqaro markazi, O'MIning joylardagi vakilliklarining internet saytlariga sof islom ta'limotlarini yoritishga bag'ishlangan hamda turli norasmiy, g'arazli oqimlar tomonidan da'vo qilinayotgan g'oyalarga (xususan, mazhabsizlik, takfir, hijrat, jihod) haqqoniy ilmiy raddiya mazmunidagi maqolalarni muntazam berib borish;
- mahallalarda hushyorlik va ogohlikni ta'minlash, yoshlarning tarbiyasida oila ma'suliyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar uyushtirish va bu kabi ishlarda faol ishtirok etish, mehnat migrantlari bilan ularni jihodiy jamoalar ta'siriga tushib qolishi oldini olishga qaratilgan suhbatlarda ishtirok etish;

- hokimiyat, korxonalar, tashkilot, "Mahalla" va "Nuroni" jamg'armalari bilan hamkorlikda xayriya faoliyatini kuchaytirish orqali ekstremistlar uchun «faoliyat maydonini» toraytirish va yo'qqa chiqarishga alohida e'tibor qaratish;

- diniy-ekstremistik oqimlar tarkibida sodir etgan jinoyati uchun jazo o'tagan, hozirda tuzalish yo'liga kirgan va amnistiya tufayli ozodlikka chiqqan shaxslar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarda qatnashish, ularga aqidaparastlikning asl mohiyati va zararli oqibatlarini tushuntirish bilan ijobiy ta'sir o'tkazishga urg'u berish.

Diniy ekstremizmning salbiy oqibatlari: Biz bunga misol qilib diniy ekstremistik guruhlarining yoshlarimiz ongiga o'tkazayotgan ta'sirini aytishimiz mumkin. Bugungi kunda diniy ekstremistik oqimlar yoshlar ongini zaharlashda asosiy qurol sifatida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishmoqda. Yoshlar o'zlari bilmagan holda har xil telegram, instagram, facebook, twitter va shunga o'xshagan ijtimoiy tarmoqlarda qanaqadir kanallarga qo'shilib qolish oqibatida diniy ekstremistik va terrorchilik oqimlariga qo'shilib ketishmoqda. Bularning oldini olishning eng samarali yo'li bu ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati hamda chegarasini bilish lozim.

Adabiyotlar:

1. Najmutdinova M., Narkulova I. R. Q. O'zbekiston Respublikasi suverenligining huquqiy asosi //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 895-899.
2. Наркулова И. Р. К. Реализация межпредметных связей через бинарные занятия (на примере дисциплин «Русский язык» и «Гражданское право») //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 932-935.
3. Ёкубова И. Р. Формирование профессиональной компетентности тюркоязычных студентов при обучении русскому языку как иностранному (на примере авторской интерактивной программы «Русский язык для военных юристов») //II Международный конгресс «Языковая политика стран Содружества Независимых Государств (СНГ)». – 2021. – С. 207-209.
4. Narkulova I. R. Verbs of perception in Russian and the ways of their teaching to cadets of higher military educational institutions //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2022. – Т. 2. – №. 8.
5. Наркулов, А. К. угли . (2023). ЗНАЧИМОСТЬ ПАТРУЛИРОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА. Innovative development in educational activities, 2(20), 239–243. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10055339>
6. Наркулова И. Р. К. СВОЙСТВА ГЛАГОЛОВ АКТИВНОГО ВОСПРИЯТИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 28. – С. 421-423.
7. Muratovich M. R., Rajaboevich I. A. HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 36. – №. 1. – С. 32-34.
8. Махмудов Р. М. ҚУРОЛЛИ КУЧЛАР ТИЗИМИДА МУРАББИЙ-ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ АЁЛЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШДАГИ МЕТОДИК ИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ҲОСЛИГИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 119-122.
9. Наркулова И. Р. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ-БИЛНГВОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ

ТЕХНОЛОГИЙ //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 185-193.

10. НАРКУЛОВА И. THE USE OF COMPUTER LINGUODIDACTICS IN THE PROCESS OF TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE //Social sciences.

8. Narkulova I. R. PROJECT TECHNOLOGY AS A MEANS OF DEVELOPING THE INDIVIDUALITY OF CADETS //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2023. – Т. 3. – №. 1.

9. Наркулова И. Р. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ВАРЬИРОВАНИЕ ЗАИМСТВОВАНИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ СЛОВАРЯ СИ ОЖЕГОВА) //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 7-9.

10. Махмудов Р. М., Ибрахимов А. Р. ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИ ВА ОФИЦЕРЛАРНИ БОШҚАРУВ ФАОЛИЯТИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 143-146.

11. Махмудов Р. М., Хайдаров И. О. АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИНГ ШАХСГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 30-33.

12. МАХМУДОВ Р. М., ЎҒЛИ Э. А. А. ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРНИНГ ПРОФЕССИОНАЛ БЎЛИБ ШАКЛЛАНИШИГА КАСБИЙ БУЗИЛИШНИНГ САЛБИЙ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 13. – №. 1. – С. 18-24.

13. Наркулова И. Р. К. Профессионально-ориентированное обучение русскому языку курсантов юридического профиля на основе интерактивной программы //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1348-1352.

14. Закирова А. О., Наркулова И. Р. Қ. Роль русского языка в работе сотрудников органов внутренних дел //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 1. – С. 737-740.

15. Наркулов А. К. У. Роль правоохранительных органов и общественных организаций в сфере обеспечения общественного порядка (на примере США) //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 1615-1620..